



## **“QAYG‘UDAN KEYINGI KUN” DAN “YOMG‘IR MAVSUMI” TOMON**

**Normanova Iroda,**

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU 2-kurs magistranti*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207334>

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek adabiyoti she‘riyatining boyishiga samarali hissa qo‘shgan qadim buxorolik adabiy sulolaning kichik vakili adabiyotshunos olim Shavkat Hasanning “Qayg‘udan keyingi kun” va “Yomg‘ir mavsumi” nomli she‘riy to‘plamidan o‘rin olgan she‘rlari badiiyati haqida so‘z boradi. Ijodkor she‘rlari mavzu, g‘oya va shakl jihatdan, unda qo‘llanilgan badiiy san‘atlar o‘rganilib tahlil qilinadi.*

***Kalit so‘zlar:** Adabiy sulola, she‘riyat, uslub, mavzu, g‘oya, shakl, badiiy san‘at.*

O‘zbek adabiyoti uzoq tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, u turli davrlarda rivojlanib, shakllangan. Ayniqsa, zamonaviy o‘zbek adabiyotida sulolalar (ya‘ni, ma‘lum bir oilaviy nasl, avlod-ajdod yoki sulola) mavzusi alohida e‘tiborga loyiqdir. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida sulolalar mavzusi ikki asosiy yo‘nalishda ko‘rinadi: biri – yozuvchilar sulolalarining ijodiy merosi va ularning adabiyotga ta‘siri bo‘lsa, ikkinchisi – adabiy asarlarda sulolalarning tasviri va ularning jamiyatdagi o‘rnidir. Ushbu maqola orqali biz zamonaviy o‘zbek adabiyotining rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shgan buxorolik Hasanovlar adabiy sulolasining kenja vakili adabiyotshunos olim, Samarqand Davlat universitetining Istiqlol davri o‘zbek adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrasini mudiri Shavkat Hasan she‘rlari badiiyati haqida gaplashamiz.

Shoirning bugunga qadar “Yomg‘ir mavsumi” va “Qayg‘udan keyingi kun” nomli ikkita she‘riy to‘plami chop etilgan. Bu to‘plamlar 1992 -yilda nashr qilingan bo‘lib, aynan mana shu davrda o‘zbek she‘riyati o‘ziga xos rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tgan, adabiyotda milliy uyg‘onish, mustaqillik g‘oyalari va insoniy qadriyatlar yetakchi mavzularga aylana boshlagan payt edi. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin adabiyot erkinlikka intilib, mafkuraviy cheklolardan xalos bo‘la boshladi. Endilikda shoirlar o‘z she‘rlarida milliy qadriyatlar, tarixiy adolat va mustaqillikni ulug‘lashga katta e‘tibor bera boshladilar. Erkin ifoda usuli kengaydi. Sovet davriga xos bo‘lgan mafkuraviy chegaralar buzilib, shoirlar jamiyat va inson ruhiyati haqida erkin fikr yuritish imkoniga ega bo‘ldilar. An‘anaviy uslubga zamonaviy obrazlar, falsafiy mushohadalar singdirildi.

Shavkat Hasan ham mana shu shoirlar qatorida qalam tebratgan, ammo o‘z ta‘biri bilan aytganda”... bilamanki, shoirona lutf, Bo‘lmas mening aytar so‘zimda...” deya kamtarlikni “kasb qilgan” samimiy shoirlardan.



Shavkat Hasan she'rlarini mutola qilar ekanman rang-barang kayfiyat paydo qiladigan, xayol kengliklariga yetaklaydigan, insonni o'zligi haqidagi teran mushohadaga undaydigan she'rlar yozganligiga yana bir bor amin bo'ldim. She'riy to'plamlari qo'lga olingandayoq, ularning nomlanishiga e'tibor qaratilgandayoq bu kitoblar muallifini shunchaki yengil-yelpi havaslar qalam olishga undamaganligi ravshanlashadi. Shoirning "Qayg'udan keyingi kun" kitobini adabiyotshunos Shodmon Sulaymon shunday ta'riflagan edi: "...o'zligini izlayotgan navrasta qalamkashning o'z qalbi kabi beqaror hissiyotlari to'kilgan yoshlik daftari deyish mumkin. Illo, insoniy muhabbat tarannumi, uning dardi va shavqi izhori shoirning "eng gullagan yoshlik chog'ida" (Hamid Olimjon misrasi) nashr qilingan bu she'riy majmuani kitobxon qalbiga yaqinlashtiradigan muhim fazilatdir".

Shoir she'rlarini o'qib tahlil qilar ekanman, beixtiyor she'riy to'plamlarning nomi e'tiborimni tortdi. Go'yoki bu nomlar mustaqilligimiz va undan oldingi mustabit tuzumga qaram davrimizni bir -biri bilan taqqoslash orqali ozodlik degan buyuk bir ne'matni qo'lga kiritganimizni "ko'z-ko'z" qilmoqchidek tuyuladi. "Qayg'undan keyingi kun" "dan o'rin olgan "Begona o't" va "Labihovizdagi o'ylar" she'rlarida shoir sho'ro davri va uning ta'siri hali hanuzgacha davom etib kelayotganini alam bilan tasvirlaydi. "Labihovuzdagi o'ylar" she'rida Shavkat Hasan Afandi obrazidan foydalanib, o'tmish mafkurasini, ayniqsa, Sovet davri ta'sirini hajv qilayotgan bo'lishi ehtimol.

Sho'ro davri mafkurasida uzoq yillar davomida hayotimizning har bir jabhasiga singdirilgan edi. She'rda "Siz endi joni yo'q, oddiy bir haykal" degan misra bu mafkuraning rasmiy darajada tugaganini, ammo izlari hanuz qolayotganini anglatadi. Garchi Sho'ro tuzumi tugagan bo'lsa-da, u ta'sir qilgan avlodlar, uning qadriyatlarini jamiyat ongida saqlanib qolayotgani shoir tomonidan kinoyaviy ifoda etilgan. She'rning oxirida Afandining eshakda gap sotayotganini tasvirlash ham muhim detal. Bu, balki, Sho'ro davrining ayrim vakillari yoki ularning mafkurasini hanuz targ'ib qilayotgan kishilar haqida. Ya'ni, o'tmishdagi g'oyalarning bugungi kunda ham ayrim joylarda o'z ta'sirini yo'qotmaganiga ishora bor.

Umuman olganda, she'r hajviy uslubda yozilgan bo'lsa-da, unda o'tmish va bugunning keskin tahlili turibdi. Sho'ro davri tugagan, lekin uning soyasi hali ham jamiyatda aks-sado berayotgani shoirning satirik nigohi ostida qilingan nozik ishora bo'lishi tabiiy. "Begona o't" she'ri ham teran ijtimoiy va siyosiy ma'noga ega. Asarda O'zbekiston qishloq xo'jaligi, ayniqsa, dehqonchilikning og'ir ahvoli,

# “O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



rahbarlarning beparvoligi hamda jamiyatdagi muammolar ramziy obrazlar orqali yoritilgan.

She’rda asosiy g’oya – dehqon mehnatining qadrsizligi, rahbarlarning adolatsizligi va xalq hayotidagi nohaqliklarga ishora qilishdir. Asarda “begona o‘t” obraziga alohida e’tibor qaratilgan. U yer yuzasida o’suvchi begona o‘tlarni emas, balki xalq orasiga singib ketgan “begona unsurlarni” – ya’ni adolatsiz rahbarlarni, korrupsiya va manfaatparastlarni nazarda tutadi.

She’rdagi ramziy obrazlar Dehqon – halol mehnat kishisi, xalq timsoli. Yer – ona Vatan, O‘zbekiston ramzi. Begona o‘tlar – jamiyatga zarar keltiruvchi odamlar, korrupsionerlar va manfaatparast rahbarlar. Paxta – xalqning asosiy daromad manbai, lekin uni rahbarlar o‘z manfaatlari yo‘lida ekspluatatsiya qilishganligi achchiq haqiqat. Rais va vakillar – amalda hech qanday foydali ish qilmaydigan, faqat manfaatini o‘ylaydigan rahbarlardir.

She’riy san’atlarning o‘z o‘rnida ajoyib tarzda qo‘llanishi she’rning badiiy qiymatini yanada oshirgan. “Begona o‘t” real begona o‘tlargina emas, balki jamiyatga zarar yetkazayotgan kimsalarga nisbatan metafara shaklida ishlatilgan.

Parallelizm: “Qahraton, saraton, xoh kunduz, xoh tun Ishladi dehqonning qurib darmoni”. Bu misralar dehqonning har qanday sharoitda mehnat qilishini aks ettiradi. Tazod (antiteza): “Ko‘m-ko‘k nihollarga, yerga, dehqonga Ma’ruza qilishdi bir oy muttasil”. Nihollar o‘stirish kerak bo‘lsa-da, mutasaddilar faqat gapirish bilan ovora.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Shavkat Hasan bu she’r orqali xalqning haqiqatini yoritib, ijtimoiy adolatsizlikni fosh qilgan. Dehqon halol mehnat qilsa ham, “begona o‘tlar” unga halaqit beradi. Bu begona o‘tlar jamiyatni bosib olgani uchun dehqonning mehnati samarasiz bo‘lib qoladi. Asar bizga faqat mehnatkash xalqni emas, balki uning ustidan hukmronlik qilayotgan manfaatparastlarni ham ko‘rsatadi. Boshqa bir she’rida shoir oldinda yorug‘ kunlar borligiga umid bog‘lab lirik qahramonga quyidagicha murojaat qiladi.

Bir ajoyib, go‘zal kun  
Meni chiqsang axtarib,  
Ro‘molingni qo‘lingda  
Bayroq kabi ko‘tarib.

Ushbu misralari chuqur ramziy ma’noga ega bo‘lib, mustaqillikka erishish ostonasida turgan paytlarimizni ifoda etgan. “Bir ajoyib, go‘zal kun” mustaqillik kuni yoki erkinlikka erishilgan yorug‘ kun. Mustaqillik millat hayotida eng muhim va

# “O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



quvonchli voqealardan biri bo‘lib, “ajoyib va go‘zal kun” sifatida tarannum etilishi, “men” so‘zi shoirning o‘zi yoki ramziy ma‘noda vatan, mustaqillik, erk kabi tushunchalarni anglatishi tabiiy. Ro‘mol ko‘pincha sharaf, hurmat va ramziy belgi sifatida qabul qilinadi. Ro‘molning “Bayroq kabi ko‘tarilishi”da ham mustaqillik timsoli sifatida davlat bayrog‘ini baland ko‘tarish, milliy g‘ururni namoyon etish g‘oyasi yashiringan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Shavkat Hasan ijodi tor mavzu doirasida emas, turli g‘oyalar singdirilgan keng mavzuga ega. Uning lirik qahramoni oddiy xalq, qishloqning tupori mehnatkash odami va shu bilan birga o‘zining ichki kechinmalariga, his-tuyg‘ulariga, qadr-qimmatiga befarq bo‘lmagan mustaqillik farzandi. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, shakl va mazmun uyg‘unligi asosida har bandi ikki, uch, to‘rt, besh misralar iborat she‘rlar yozdi. Tilining soddaligi, ravon va ixchamligi bilan alohida ajralib turadigan mansura shaklida yozilgan she‘rlari shoirning yana bir o‘z ta‘biri bilan aytganda imkonida hali otilishi kerak bo‘lgan so‘zlar va “o‘qlar” ko‘pligidan dalolat beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahad Hasan. (2012). Ochiq darvoza. G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
2. Ahad Hasan. (2001). Dunyoni bolalarga beraylik. "Buxoro" nashriyoti
3. Rajabov, D. Sulaymonov, Sh. (2006). Qaynoq qum kengliklarida. "Buxoro" nashriyoti
4. Ilhom Hasan. (2022). Tun tongga tutash. "Adabiyot" nashriyoti
5. Safarov, O. (2013). Adabiy sulola sardori. 1999.
6. Shavkat Hasan. (1992). Yomg‘ir mavsumi. Samarqand.